

**DEVELOPING CREATIVE AND COMMUNICATIVE SKILLS IN
PRIMARY EDUCATION STUDENTS THROUGH MOTHER
LANGUAGE LESSONS**

Goyibnazarova Nargiza Rakhimjonovna

Senior teacher of the Department of Pre-
School, Primary and Special Education
Methods of the Pedagogical Center of
Namangan Region

Abstract: The article describes the ways to develop students' creative and communicative skills through various educational tasks in primary education native language lessons.

Keywords: student, correct writing, methods, creative thinking, logical thinking, story, hero, interest, activity, communicativeness, vocabulary, motivation.

**BOSHLANG'ICH TALIM ONA TILI DARSLARI ORQALI
O'QUVCHILARIDA KREATIV VA KOMMUNIKATIV
KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH**

G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarni boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida turli ta'limiy topshiriqlar orqali kreativ va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari haqida yozilgan.

Kalit soʻzlar: oʻquvchi , toʻgʻri yuzuv, metodlar, kreativ fikrlash, mantiqiy tafakkur, hikoya, qahramon, qiziqish , faoliyat, kommunikativlik, soʻz boyligi, motivatsiya.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ И КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ПОСРЕДСТВОМ УРОКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА.

Гайибназарова Наргиза Рахимжоновна,
старший преподаватель кафедры методики дошкольного,
начального и специального образования
Наманганского областного центра педагогического

Аннотация: В статье описываются способы развития творческих и коммуникативных навыков различных образовательных партнеров в процессе обучения студентов иностранным языкам.

Ключевые слова: oʻquvchi, toʻgʻri yuzuv, методы, творческое мышление, логическое мышление, hikoya, qahramon, qiziqish, faoliyat, коммуникативность, многословие, мотивация.

Taʼlim sohasidagi oʻzgarishlar yuz berayotgan hozirgi davrda matematikaning ahamiyati yanada oshdi, ona tili fanini oʻqitish hamma sohada juda muhim. Taʼlim sohasida oʻzgarishlar davrida fan asoslaridan puxta bilim berish, hayotiy koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Boshlangʻich taʼlimda uni oʻqitish tubdan isloh qilindi va yangi oʻqitish metodlari 4 K modeli asosida oʻqitish va u asosda metodik tizim ishlab chiqiladi.

Har bir boshlangʻich taʼlim oʻqituvchisi maʼsuliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon oʻqituvchisi, ayniqsa, boshlangʻich sinf oʻqituvchilaridan oʻz kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilgʻor pedagogik texnologiyalar, taʼlimiy topshiriqlarni mohiyatini anglash va ulardan oʻz darslarida unumli foydalanishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinfda ona tili ta'limi o'quvchilarda tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z g'alar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga, mantiqiy fikrlash, tanqidiy yondashish orqali aqliy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini o'stiradi.

Hammamizga ma'lumki, boshlang'ich ta'limda zamonaviy xalqaro talablarga javob beradigan yangi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etishga asoslangan yangi avlod darsliklari yaratildi. Bu darsliklar XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish, 4K tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish tamoyillariga asoslanganligidir.

Quyidagi tavsiya ham shu maqsadni ko'lagan holda bir qator metod va topshiriqlarni o'z ichiga olgan va ta'lim sohasidagi rivojlanishlarga baholi qudrat hissa qo'shadi. Ilg'or tajribalar asosida yaratilgan o'quv dasturi va darsliklarni amaliyotga joriy etishda boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Zamonaviy ta'lim 4K modeli asosida hayotiy ko'nikmalari o'stirishni nazarda tutganligi hisobga olgan tavsiyadan o'rin olgan metod va topshiriqlar ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda kreativ ko'nikmalar hosil qilish ustida ham ish olib boriladi.

Kreativ va kommunikativ ko'nikmalar o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga tmkoniyat yaratadi. Ona tilda beriladigan bilim boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlardir.


tavsiyada bir necha metod namunalaridan beriladi, Undan kerakli o'rinlarda va g'oyalar bilan boyitib foydalanilsa mumkin. Ta'lim jarayonida turli ta'limiy o'yin va

zamonaviy metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Boshlang'ich ta'limda ta'limiy o'yinlar vositasida darslarni tashkil qilish o'quvchilarni aqliy faoliyatiga tezroq kirishishlari adabtatsiya hosil qilishlariga ham ko'mak beradi. O'tilgan darsni mustahkamlashda yoki yangi darsni boshlanishida ta'limiy o'yinlardan foydalanib o'quvchilarni qiziqishlarini darsga yanada oshirish mumkin. Ta'limiy topshiriqlarning ahamiyati boshlang'ich ta'limda qo'llash yaxshi samara beradi. Ta'limiy o'yin va metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun o'qituvchilar tomonidan mavzuni oson va tez qo'llaniladigan usuldir. O'yin topshiriqlari o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish jarayonini aniqlashtiradi. Bayon qilingan metod va ta'limiy topshiriqardan o'rinli, to'g'ri foydalanish boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining ta'lim jarayoniga qiziqishini yanada oshiradi.

Quyida tavsiya qilingan ta'limiy o'yin o'quvchilarni hamkorlikda ishlash orqali mustaqil fikrlash orqali kreativ fikrlash ko'nikmlarini o'stiradi. Zamonaviy bir necha metod namunalaridan berilgan. Ulardan darslarda va g'oyalar bilan boyitib foydalailsa mumkin

Boshlang'ich ta'lim uchun ona tili darsiga oid turli topshiriqlar tayyorlanib ularni o'quvchilarning savodxonligini, lug'at boyligini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam berishiga yo'naltirib berilgan

“Men qaysi burchakda ” metodi orqali ona tili darslarida o'quvchilarning o'qib tushinishiga oid nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishda ijodiy fikrlashiga, nutqini o'stirishga yordam beradi. Metod mazmuni va foydalanish quyidgicha bo'ladi. Burchaklar (Corners ingliz tilida burchak ma'nosida ifodaanadi) usulidan foydalanish uchun 4 ta A4 formatidagi qog'ozga 4 xil mavzu yozish lozim. Masalan, 1-sinf on tili tovush , harf, gap, nutq va nomi A4 formatdagi qog'ozga yozadilar.



Sinfdagi o‘quvchiga shu yozilgan A4 formatdagi qog‘ozlar bittadan beriladi. Ular to‘rttasi esa sinfning 4 burchagiga bittadan borib turishadi va qog‘ozlarni o‘quvchilarga ko‘rinadigan qilib ushlab o‘tirishadi. Qolgan sinf o‘quvchilarni 2 yoki 4 guruhga bo‘linib oladilar. Avvaldan har bir mavzu yuzasidan 4 tadan ma‘lumotlarni alohida alohida kartochkalarga yozib, tayyorlab qo‘yish kerak. Shunda jami 16 ta kartochka bo‘lishi kerak. Navbatma-navbat jamoalardan bittadan a‘zo kelib tarqatmadan olib oladi. Masalan, uni eshitiladi.-deyilgan fikr bu tovushga tegishli uni olib borib “Tovush” yozilgan burchakka qo‘shiladilar. Bu metodning asosiy qoidalaridan biri o‘quvchilar kartochkalardagi ma‘lumotlarni ovoz chiqarib o‘qimaydilar. O‘zlari ovoz chiqarmay ichlarida o‘qiydilar va tanlagan burchaklariga boradilar. Har bir o‘quvchi uchun yarim daqiqa vaqt belgilangan. Bu oraliqda ular o‘ylab olishlari mumkin. Barcha o‘quvchilar bittadan kartochkaga javob berishgach xatolarni tahlil qilish mumkin. Endi o‘quvchilar kartochkadagi ma‘lumotlarni ovoz chiqarib o‘qiydilar. Agr o‘quvchi to‘g‘ri burchakda o‘tirgan bo‘lsa, uni o‘qituvchi izohlab beradi.. Va to‘g‘ri javobga tegishli ball beriladi. O‘quvchi noto‘g‘ri burchakda bo‘lsa xatosini tushintiriladi. Shu tariqa guruhlar bali aniqlanadi va g‘oliblar taqdirlanadi. Topshiriqlar ma‘lumotlarni aralashtirish usulida mantiqiy tuzadi, o‘qib tushinish konikmasini shakllantiradi, og‘zaki nutqni rivojlantiradi, ilmiy bilish qobiliyatini oshiradi, to‘g‘ri tanlov qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Darsda ko‘zlangan maqsad mavzuni mustahkamlashga erishiladi. Bu metod ta‘lim samaradorligi oshadi; avval olingan

bilimlar e'tiborga olinadi; o'quvchining mantiqiy va mustaqil fikrlashiga sharoit yaratiladi; amalda bajarish imkoni mavjud, kreativ yondashiladi.

“Rasmdagi so‘zlarni top” topshiriq orqali o‘quvchilarni tezkorlikka undash mumkin.. Kuzatish va mustaqil fikrlab og‘zaki nutqi rivojlanadi. O‘quvchilarga mavzu yuzasidan bir nechta rasm beriladi va ulardan har biri qanday so‘z bilan atalishini yozish so‘raladi. Bunda tovush va harf mavzusini o‘tganada qo‘llasa bo‘ladi. Quyidagicha rasmlar berilishi mumkin.



Masalan: qush, lola, uy, non.

Qo‘shimcha: Har bir so‘z nechta harfdan iboratligini sanang? Yozgan so‘zlaringiz nechta harfdan iborat? kabi savollar bilan to‘ldirish mumkin. O‘quvchilar so‘zni tovush va harfini bilishga hamda to‘g‘ri yozishga o‘rganadilar.

Topshiriq: ”Mening so‘zim qayerda?” Bu topshiriq orqali o‘quvchilar quyidagi gaplarda tushib qolgan so‘zlarni topishi kerak bo‘ladi. Gap o‘zining tushib qolgan so‘zini qayerda ekanini so‘ramoqda. O‘quvchilar uni topib gapni to‘ldirib o‘qishlari kerak.

Men ertalab __ ichdim. (choy, **sut**, suv)

Men ertalab sut ichdim.

__ bog‘ida go‘zal gullar ochildi. (**Bahor**, kuz, qish)

Bahor bog‘ida go‘zal gullar ochildi

__ o‘qish va yozishni o‘rgatadi. (**O‘qituvchi**, shifokor, do‘st)

O‘qituvchi o‘qish va yozishni o‘rgatadi

Qo‘shimcha: Topilgan so‘zlar sizga tanishmi bu so‘zlar bilan yangi gap tuza olasizmi? O‘quvchilar chiziq o‘rniga qo‘yilishi kerak bo‘lgan so‘zni mantiqan o‘ylab

ijod qilishga o‘rganadilar. Mos so‘ni topishga o‘rganadi. Tahlil qiladilar. To‘g‘ri talaffuz qilish va yozishga o‘rganadilar.

Topshiriq. “Mevalar va sabzavotlarni ajratish” Bu topshiriq bir so‘z nechta tovush va harfdan iborat ekanini aytishadi. Bunda o‘quvchilarga turli meva va sabzavotlarning nomi yoki rasmi bo‘lmasa mulyaj varianti taqdim etiladi. O‘quvchilar unda mevalarni alohida savatga, sabzavotlarni esa alohida savatga yig‘ishlari va tergan mevalarini talaffuz qilishi kerak. Meva sabzavotlar iloji boricha o‘quvchilar soniga teng bo‘lishi hisobga olinadi. O‘quvchilar sinfda, guruhda yoki juftlikda bajarsa ham bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarga turli meva va sabzavotlar aralashtirib beriladi. Ularni savatga soladilar. Bularni nomini aytib talaffuz qiladilar va bo‘g‘inga bo‘ladilar. O‘quvchilar meva va sabzavotlarni ajratishga o‘rganadi. Ularni mantiqan o‘ylab tegishli savatga soladilar. Bu meva va sabzavotlarni bo‘g‘inga bo‘ladilar va talaffuz qiladilar. To‘g‘ri talaffuz qilish va yozishga o‘rganadi. Topshiriq: “Raqamlar orasiga yashirin so‘zlar” Bu topshiriq darsida o‘ziga xos tarzda qo‘llash mumkin. O‘quvchilarga 15 ta tarqatma sinfdagi o‘quvchilar juftligiga beriladi. Unda raqam orasidan harflar so‘rog‘i yashiringan bo‘ladi. Bunda juftliklar guruhga alifbo tartibidagi harflar, rangli varaqchalar beriladi. Topshiriq 4 bosqichda o‘tkaziladi.

- 1) Dars mavzusi, unga oid so‘z yashiringan deb tushuntiriladi;
- 2) Tanlangan mavzu so‘zlarni aniqlash uchun harflarni o‘rni bo‘yicha harflardan so‘zni izlash vazifasi beriladi;
- 3) Harflar, raqamlar alifbo tartibida yashiringan bo‘ladi;
- 4) O‘quvchilar bajaradilar;

Guruhlarga beriladi, qaysi guruh tez, to‘g‘ri topsa shu guruh g‘olib sanaladi. O‘quvchilar vazifani bajarishlari O‘quvchilar guruhida bu so‘zlar harflarni ustiga rangli varaqchalar bilan yashirilib qo‘yiladi. Har bir guruhlarga beriladi, qaysi guruh tez, to‘g‘ri topsa shu guruh g‘olib sanaladi.

Topshiriq: Berilgan maqollardan eng ko‘p harf ishtirok etgan maqolni toping va ayting. Bu metod o‘quvchilarni harf va tovush haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi. Topshiriq sinfda guruhga bo‘linib tashkil etiladi.

O‘quvchilarga turli mazmundagi maqollar beriladi. Bu maqollar o‘quvchilar tomonidan o‘qiladi va ichidan guruhga eng ko‘p harf ishtirok etgan maqolni aniqlash vazifasi beriladi.

Sen tinch –qo‘shning tinch .

Odobli bola elga manzur.

Kitob bilim manbayi.

Do‘st kulfatda bilinar.

Bahorgi harakat –kuzgi barakat.

Ilm –aql chirog‘i.

Topshiriq. “Matn yaratish” Bu topshiriq o‘quvchilarni so‘zlardan foydalanib yangi gap va matn hosil qilishga o‘rgatadi. O‘quvchilar guruhiga yoki juftligiga turli so‘zlar beriladi. Quyidagi so‘zlardan foydalanib 2-3 gapdan iborat matn tuzing.

O‘qish, kitob, bilim, do‘st.

Men kitob o‘qishni yaxshi ko‘raman. Kitob menga yaqin do‘st. Undan bilim olaman. Kitob o‘qish menga yoqadi. O‘quvchilarda so‘zlarni bog‘lab gap tuzish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Ona tili darsida tilga amaliy qo‘llash bilan bir qatorda boshqa fanlarga doir tushunchalar kiritilgan. Savodxonligini oshirish bilan bir qatorda so‘zlashuvga xos so‘zlarni va tushunchalar ham o‘rganib borish muhim. Darsda bolalar nutqini o‘stirish darsning mazmunida va qo‘llanilgan ta;limiy topshiriq turlarida o‘z aksini topadi, o‘quvchilarning lug‘ati boy kommunikativ va kreativ ko‘nikmalari yanada trivojlanib boradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
2. “ Raqamli ta’lim” metodik qo‘llanmasi. – Toshkent: Innovatsiya markazi, 2022.
3. Xodjayeva M., Zokirova D. “Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar”. – Toshkent, 2021.
4. G‘ofurova N. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi asoslari”. – Andijon, 2020.
5. Jumaniyozova D. “Interfaol o‘qitish metodlari va dars ishlanmalari”. – Samarqand, 2022.
6. Usmonova R. “Multimedia vositalar bilan dars o‘tish metodikasi”. – Toshkent, 2021.
7. “Boshlang‘ich sinfda innovatsion yondashuvlar” (maqolalar to‘plami). – Buxoro, 2022.
8. Mamarasulova N. «Boshlang‘ich sinflarda axloqiy tarbiya berishda o‘yin texnologiyalarining ahamiyati». - Boshlang‘ich ta‘lim.2020,N3.